JIZZAX VILOYATI G‘ALLAOROL TUMAN HOKIMI
Q A R O R I

2023 - yil 31 - oktabr 287-3-45-Q/23 G‘allaorol tumani hokimligi

Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni 2023 yilda ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Axoli bandligi tugrisida”gi Qonunining 39-moddasiga va Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 5 dekabrdagi 965-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomga asosan tumanda 2024 yilda ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarini band qilib qo‘yish maqsadida

Q A R O R Q I L A M A N:

1. O‘zbekiston Respublikasi “Axoli bandligi tugrisida”gi Qonunining 39 -moddasiga asosan ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun xodimlarning o‘rtacha soni 20 nafardan ko‘pni tashkil etadigan korxona, muassasa va tashkilotlarda 2024 yil uchun 3 foizdan 7 foizgacha jami 96 ta kvota ish o‘rinlari ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Shu jumladan:

o‘n to‘rt yoshgacha va nogiron bolalari bo‘lgan yolg‘iz ota, yolg‘iz va ko‘p bolali ota-onalar uchun (15 kishi);

Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta’lim tashkilotlarini, kasb-xunar maktablarini, kasb-hunar kollejlarini hamda texnikumlarni tamomlab, kasbga ega bo‘lgan yoshlar, «Mehribonlik» uylarining bitiruvchilari, shuningdek oliy ta’lim muassasalarining davlat grantlari bo‘yicha ta’lim olgan bitiruvchilari uchun (49 kishi);

safarbarlik chaqiruvi zaxirasida xizmatni o‘tagan va O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari saflaridan muddatli harbiy xizmatdan bo‘shatilgan shaxslar uchun (6 kishi);

nogironlar uchun (2 kishi);

jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan yoki sudning qaroriga ko‘ra tibbiy tusdagi majburlov choralari qo‘llanilishidan ozod qilingan shaxslar uchun (5 kishi);

tuman aholi bandligiga ko‘maklashish markazida ish qidiruvchi sifatida hisobda turgan shaxslar uchun (19 kishi);

2. Ushbu toifa shaxslar uchun ish o‘rinlari xodimlar tomonidan o‘zlarining mehnat majburiyatlarini to‘siqlarsiz bajarishini ta’minlaydigan sanitariya-gigiena normalari va mehnat sharoitlariga muvofiq bo‘lishi ta’minlansin,

xususan:

yolg‘iz ota, yolg‘iz ona va 14 yoshgacha bo‘lgan nogiron bolalari bor ko‘p bolali ota-onalar uchun - bolalarni tarbiyalash va mehnat majburiyatlari bo‘yicha vazifalarni uyg‘unlashtirish imkonini beradigan, o‘zgaruvchan ish jadvaliga ega bo‘lgan ish o‘rinlari;

Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta’lim tashkilotlarini, kasb-hunar maktablarini, kasb-hunar kollejlarini hamda texnikumlarni tamomlab, kasbga ega bo‘lgan yoshlar, «Mehribonlik» uylarining bitiruvchilari,

shuningdek oliy ta’lim muassasalarining davlat grantlari bo‘yicha ta’lim olgan bitiruvchilari uchun - ularning kasb bo‘yicha tayyorgarligiga muvofiq bo‘lgan ish o‘rinlari;

O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlaridan muddatli harbiy xizmatdan bo‘shatilganlar uchun - ularning kasb bo‘yicha tayyorgarligiga muvofiq bo‘lgan ish o‘rinlari;

nogironlar uchun - mehnat sharoitlari bo‘yicha attestatsiyadan o‘tkazilgan hamda xodimga ish jarayonlarini to‘sqinliksiz bajarish imkonini (sog‘lig‘ining ahvoli va mehnat faoliyatiga nisbatan belgilangan zid ko‘rsatkichlar hisobga olingan holda) beradigan ish o‘rinlari;

tuman aholi bandligiga ko‘maklashish markazida ish qidiruvchi sifatida hisobda turgan pensiya yoshiga yaqinlashib qolgan shaxslar uchun - maxsus malakani talab qilmaydigan ish o‘rinlari;

jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan yoki sud qaroriga ko‘ra tibbiy yo‘sindagi majburlov choralariga tortilgan shaxslar uchun - ularning kasb bo‘yicha tayyorgarligi hisobga olingan holdagi ish o‘rinlari, muayyan kasb-hunarga, malakaga ega bo‘lmagan shaxslar uchun esa - maxsus malakani talab qilmaydigan ish o‘rinlari;

odam savdosidan jabrlangan shaxslar uchun - ularning kasb bo‘yicha tayyorgarligiga muvofiq bo‘lgan ish o‘rinlari.

3. Ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslar uchun band qilib qo‘yilgan ish o‘rni ilgari ushbu ish o‘rnini egallab kelgan shaxs bilan tuzilgan mehnat shartnomasi to‘xtatilishi munosabati bilan bo‘shab qolganda bu haqda tashkilot 10 kun muddatda tuman Bandlikka ko‘maklashish va aholini ijtimoiy muhofaza qilish markazini yangidan ochilgan bo‘sh ish o‘rni to‘g‘risida xabardor etishi belgilansin.

4. Mulkchilik shaklidan qat’i nazar barcha korxona, muassasa va tashkilotlar rahbarlari O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2017 yil 5 dekabrdagi 965-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarini band qilib qo‘yish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomga muvofiq ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslar uchun ish o‘rinlarini belgilangan soni hisobida yil boshlangungacha 10 kundan kechikmay 25 foiz, qolgan qismini band qilib qo‘yishni keyingi kalendar yilning birinchi choragi mobaynida ta’minlasinlar.

Tashkilotlar har oydada tuman Aholi Bandligiga ko‘maklashish markaziga ushbu toifadagi shaxslarni ishga joylashtirilishi to‘g‘risida belgilangan tartibda axborot taqdim etsinlar.

5. Ushbu qarorni bajarmagan tashkilotlarga qonun hujjatlarida belgilangan tartibda jarima solinadi.

Belgilab qo‘yilsinki, mahalliy davlat hokimiyati organining ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish qidirishda qiynalayotgan shaxslar uchun ish o‘rinlarini band qilib qo‘yish bo‘yicha qarorini bajarmaganlik uchun jarimani to‘laganlik tashkilotni band qilib qo‘yiladigan ish o‘rinlarining belgilangan sonini tashkil etishdan ozod qilmaydi.

6. Ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish qidirishda qiynalayotgan shaxslar uchun band qilib qo‘yish sonidan ortiqcha ish o‘rinlari tashkil etilgan taqdirda sarflangan mablag‘larning bir qismini tuman Aholi bandligiga ko‘maklashish markazi bilan tuzilgan shartnoma asosida Aholi bandligiga ko‘maklashish markazi mablag‘lari hisobidan qoplanishi belgilansin.

7. Ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish qidirishda qiynalayotgan shaxslar uchun band qilib qo‘yish 1-ilovaga asosan tasdiklansin.

8. Tuman Aholi bandligiga ko‘maklashish markazi bir hafta muddatda ushbu qarorni ilovada ko‘rsatilgan tashkilot rahbarlari e’tiboriga yetkazsin va mazkur qarorning bajarilishini ta’minlasin.

9. Ushbu qaror rasman e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

10. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o‘rinbosari T.Qo‘chqorov zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi **Ж.Оқбоев**

G‘allaorol tuman hokimining
2023-yil 31-oktabrdagi
287-3-45-Q/23-son qaroriga
1-ilova

G‘allaorol tumanida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlarda ishlovchilar to‘g‘risida

M A ‘ L U M O T

T/p	ИНН	Хужалик yurituvchi sub’ktlar nomi	joylashgan manzili	30.07.2023 yil holatiga ishlovchilar soni	Belgilangan kvota			Nizomning 7-bandiga asosan 2019 yilda ishga joylashtirilgan shaxslar soni chegirilgan	*Yaratilishi kerak bo‘lgan kvota ish o‘rinlari rejasi*	Shu jumladan ish o‘rinlari soni toifalar bo‘yicha						
					7%	3%	Jami:			O‘n to‘rt ёshgacha bolalari bo‘lgan va nogiron bolalari bo‘lgan ёlg‘iz va ko‘p bolali ota-onalar uchun	Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarini tamomlagan ёshlar, shuningdek, oliy ta’lim muassasalarining davlat grantlari bo‘yicha ta’lim olgan bitiruvchilari uchun	Safarbarlik chaqiriq zaxirasida xizmatni o‘tagan va O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari saflaridan muddatli harbiy xizmatdan bo‘shatilgan shaxslar uchun band qilingan ish o‘rinlari soni	Nogironlar uchun	Pensiya oldi ёshidagi shaxslar uchun band qilingan ish o‘rinlari soni	Jazoni ijro этish muassasalaridan ozod qilingan ёki sudning qaroriga ko‘ra tibbiy tusdagi majburlov choralari qo‘llanilishidan ozod qilingan shaxslar	odam savdosidan jabrlangan axslar uchun
1	207056212	2-sonli "NAVRO'Z" nomli maktabgacha ta'lim muassasasi	G'allaorol tumani, G'allaorol shahri	55		2	2	1	1		1					
2	207056924	6-sonli "QUYOSHCHA" nomli maktabgacha ta'lim muassasasi	G'allaorol tumani, G'ubdin QFY	83		2	2	1	1		1					
3	207057259	24-sonli "IRMOQCHA" nomli maktabgacha ta'lim muassasasi	G'allaorol tumani, G'allaorol shahri	53		2	2		2	1	1					
4	308560761	3 son DMTT	Solin kishlogi	21		1	1		1		1					
5	206886225	1-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	G'allaorol tumani, Ittifoq QFY	68		2	2		2		1			1		
6	206886669	2-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	G'allaorol tumani, Guliston QFY	49		1	1		1			1				

7	206886447	3-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	G'allaorol tumani, Ko'kbuloq QFY	47		1	1		1					1		
8	206886296	5-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	G'allaorol tumani, Ko'kbuloq QFY	43		1	1		1	1						
9	206874010	6-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	G'allaorol tumani, Korizquduq QFY	51		2	2	1	1			1				
10	206874027	7-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	G'allaorol tumani, Korizquduq QFY	65		2	2		2	1				1		
11	206874034	8-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	G'allaorol tumani, G'ubdin QFY	42		1	1		1		1					
12	206886264	9-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	G'allaorol tumani, G'ubdin QFY	54		2	2		2	1		1				
13	206886272	11-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	G'allaorol tumani, Korizquduq QFY	46		1	1		1		1					
14	206894002	13-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	G'allaorol tumani, Qipchoqsuv QFY	49		1	1		1					1		
15	206874059	15-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	G'allaorol tumani, G'ubdin QFY	55		2	2		2		1	1				
16	206904945	17-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	G'allaorol tumani, G'ubdin QFY	39		1	1		1		1					
17	206886154	18-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	G'allaorol tumani, G'ubdin QFY	45		1	1		1	1						
18	206886043	21-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	G'allaorol tumani, Ko'kbuloq QFY	41		1	1		1		1					
19	206892701	22-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	Lalmikor shaharchasi	159	11	5	6	4	2		2					
20	206886074	27-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	Qangliobod shaharchasi	80		2	2		2		1			1		
21	206886201	34-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	G'allaorol tumani, Guliston QFY	68		2	2	1	1		1					
22	206886415	35-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	G'allaorol tumani, Ko'kbuloq QFY	47		1	1	1	1	1						
23	206906364	36-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	Xonimqo'rg'on QFY	45		1	1		1		1					
24	206905460	41-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	G'allaorol tumani, Qipchoqsuv QFY	42		1	1		1		1					
25	206886691	42-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	G'allaorol tumani, G'allaorol shahri	74		2	2	1	1		1					
26	206886336	43-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	G'allaorol tumani, Tozaurug' QFY	57		2	2	1	1		1					
27	206886408	44-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	G'allaorol tumani, G'allaorol shahri	195	14	6	8	4	4		2		1	1		
28	206909835	48-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	G'allaorol tumani, Ko'kbuloq QFY	63		2	2	1	1		1					
29	206886684	51-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	G'allaorol tumani, Ittifoq QFY	44		1	1		1		1					

30	206886534	52-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	G'allaorol tumani, G'ubdin QFY	64		2	2		2	1				1		
31	206874066	56-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	G'allaorol tumani, Madaniyat QFY	65		2	2		2		1			1		
32	206886178	58-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	G'allaorol tumani, Madaniyat QFY	62		2	2	1	1		1					
33	206886082	59-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	G'allaorol tumani, Ko'kbuloq QFY	52		2	2	1	1		1					
34	206886161	61-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	G'allaorol tumani, Guliston QFY	37		1	1		1					1		
35	206886502	64-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	G'allaorol tumani, Gulchambar QFY	51		2	2		2	1		1				
36	206886146	66-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	Xonimqo'rg'on QFY	45		1	1		1		1					
37	206886390	68-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	G'allaorol tumani, Gulchambar QFY	44		1	1		1	1						
38	206886676	70-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	G'allaorol tumani, Qipchoqsuv QFY	36		1	1		1	1						
39	206886329	71-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	G'allaorol tumani, Ittifoq QFY	42		1	1		1		1					
40	206921704	72-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	G'allaorol tumani, Qipchoqsuv QFY	35		1	1		1		1					
41	206913981	74-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	G'allaorol tumani, Madaniyat QFY	44		1	1		1			1				
42	206886240	77-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	G'allaorol tumani, Ko'kbuloq QFY	44		1	1		1		1					
43	206886423	82-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	G'allaorol tumani, Ko'kbuloq QFY	33		1	1		1					1		
44	206889592	83-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	G'allaorol tumani, G'ubdin QFY	32		1	1	1	0							
45	206886558	85-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	G'allaorol tumani, Moltob QFY	39		1	1		1		1					
46	201672005	88-sonli iqtisolashtirilgan Davlat umumta'lim maktabi	G'allaorol tumani, G'allaorol shahri	56		2	2	1	1		1					
47	205239064	90-sonli umumta'lim Davlat ixtisoslashtirilgan iqtidorli bolalar Nafis san'at maktabi	G'allaorol tumani, G'allaorol shahri	49		1	1		1		1					
48	206765605	G'allaorol tumani G'allaorol xizvat ko'rsatish texnikuvi	Qangliobod shaharchasi	39		1	1		1		1					
49	205844910	G'allaorol tumani Lalmikor 1 son kx maktabi	Lalmikor shaharchasi	71		2	2	1	1					1		

50	204753044	G'allaorol tumani "GULISTON" Agrotexnika texnikum	G'allaorol tumani, Guliston QFY	62		2	2		2		1			1		
51	207239632	G'allaorol tumani bolalar-o'smirlar sport maktabi	G'allaorol tumani, G'allaorol shahri	113	8	3	5	3	2		1			1		
52	308876312	2-sonli sport maktabi	G'allaorol tumani, Lalmikor sha[archasi	38		1	1		1		1					
53	205192196	Keksalar va nogironlar, urush va mehnat faxriylari uchun "MARJON SUVI" sanatoriysi	Lalmikor shaharchasi	111	8	3	5	4	1					1		
54	206987463	G'allaorol tumani Silga qarshi kurash dispanseri	G'allaorol tumani, G'allaorol shahri	71		2	2	1	1		1					
55	201030653	G'allaorol tumani tibbiyot birlashmasi	G'allaorol tumani, G'allaorol shahri	1468	103	44	59	39	20	5	10		1	4		
56	201030749	G'allaorol tumani hokimligi "OBODONLAShTIRISh BOShQARMASI"	G'allaorol tumani, G'allaorol shahri	241	17	7	10	8	2						2	
57	201030724	G'allaorol tumani Xalq ta'limi bo'limi	G'allaorol tumani, G'allaorol shahri	83		2	2	1	1		1					
58	201089935	G'allaorol tumani 2 son kasb xunar maktabi	G'allaorol tumani, G'allaorol shahri	63		2	2	1	1		1					
59	201030645	G'allaorol tibbiyot kollegi	G'allaorol tumani, G'allaorol shahri	62		2	2	1	1					1		
60	201089168	TYFUK	G'allaorol tumani, Sarbazar mfy	131	9	4	5	4	1						1	
61	305623676	"G'ALLAOROL EKO SFERA" mas`uliyati cheklangan jamiyati	G'allaorol tumani, G'allaorol shahri	77		2	2		2						2	
		Jami		**5240**	**170**	**152**	**178**	**83**	**96**	**15**	**49**	**6**	**2**	**19**	**5**	**0**